**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

# MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**
**MATERIALLARI**
**(2024 yil 15 noyabr)**




**SAMARQAND – 2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

# MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**
**MATERIALLARI**
**(2024 yil 15 noyabr)**

**SAMARQAND – 2024**

**UO‘K:** 657.6-051:006
Sh 63
**ĘBK:** 65.053

Moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2024 yil 15 noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 434 bet.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

**U.A. Shirinov – PhD, Dotsent;**
**X.O‘. Po‘latov – katta o‘qituvchi;**

**Nashr uchun mas’ullar:**

**K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor;**
**M.Q.Pardaev – iqtisod fanlari doktori, professor;**
**S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor.**

*Mazkur kitob buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy va metodologik muammolari, soha sub’ektlarida auditning xalqaro standartlarini keng joriy qilish, jumladan moliyaviy hisobotni MHXSlari talablariga muvofiqlashtirish, “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, buxgalterlar va auditorlarni xalqaro sertifikatlashtirish, korxona va tashkilotlarda auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, korxonalar faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rin olgan. Ushbu to‘plamda tadqiqot natijalari bo‘yicha olingan xulosa va takliflar iqtisodiyotimizning rivojlanishiga, buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro andozalar asosida tashkil etishga, ta’lim tizimini kredit-modul tizimiga o‘tkazishga xizmat qiladi.*

*Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavrlar, shuningdek korxonalar rahbarlari, buxgalterlar, auditorlarlar va boshqa mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.*

*Ilmiy to‘plam Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.*

***Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.***

**ISBN:** 978-9910-702-29-7

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

Aholi daromadlarini fiskal mexanizmlar vositasida tartibga solishga oid klassik va zamonaviy olimlarning nazariy qarashlari tahlili daromadlarni adalatli soliqqa tortish mexanizmi yaratilgandan ijobiy natijaga erishish mumkinligni ko‘rsatmoqda.

## ADABIYOTLAR RUYXATI:


1. O‘zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi (D harfi) 207-bet.
2. Rikardo D. Sochineniya. T1. Nachalo politekonomii i nalogovogo oblojeniya. Per. s ang. –M.: Gospolitizdat. 1955. – 186 s.
3. Izotova O.I. Perspektivi reformirovaniya naloga na doxodi fizicheskix lis kak instrumenta sosialnoy politiki gosudarstva. Dissertasiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Moskva-2014.
4. G. Buehler “Taxation and the minimum of subsistence” Source: The American Economic Review, Vol. 23, No. 2 (Jun., 1933), pp. 234-244. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/253.
5. Walter A. Durham, Jr. and Grover William Ensley “Revenue possibilities of the personal income tax” Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 25, No. 8 (May, 1940), pp. 231-235. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/41788057.
6. Harley L. Lutz «The privilege of personal income taxation”. Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, No. 1 (October, 1937), pp. 11-22. Stable URL: ttp://www.jstor.org/stable/41786912.
7. Thomas Piketty and Nancy Qian « Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986–2015» Source: American Economic Journal: Applied Economics, Vol. 1, No. 2 (April 2009), pp. 53-63. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/25760160.
8. Mirrlees J.A. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. Review of Economic Studies. 1971. No. 38. P. 175-208.
9. Ramsey F.A. Contribution to the Theory of Taxation // Economic Journal. 1927. No. 37. P. 47-61.
10. Sadka E. On Income Distribution, Incentive Effects, and Optimal Income Taxation// Review of Economic Studies. Vol. 43. P 261-268, 1976.
11. Stern N.H. On the Specification of Models of Optimum Income Taxation// Journal of Public Economics. 1976. Vol. 6. P. 123-162
12. Seade J. On the Shape of Optimal Tax Schedules// Journal of Public Economics. 1977. Vol. 7. P. 203-236.


## XUSUSIY KAPITAL HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI


**N.I.Najimova – SamISI tayanch doktoranti**
nigoranajimova743@gmail.com



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada xususiy kapital hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xususiy kapitalning iqtisodiy mohiyati,*

*uning xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni hamda ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda kabi tarkibiy elementlarining hisobda aks ettirilish xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *xususiy kapital, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, sintetik hisob, analitik hisob, kapitaldagi o‘zgarishlar, moliyaviy barqarorlik, kapital hisobi.*

Xususiy kapital xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy mustaqilligi va uzoq muddatli faoliyatini ta’minlovchi muhim moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. U korxona aktivlarining majburiyatlar chegirib tashlangandan keyingi qoldiq ulushini ifodalab, ustav kapitali, qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda hamda kapital tarkibidagi boshqa elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan xususiy kapital hisobini nazariy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish uning iqtisodiy mohiyati, tarkibiy qismlari, tan olish va baholash mezonlari hamda kapitaldagi o‘zgarishlarni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish tamoyillarini ilmiy asoslashni talab etadi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga uyg‘unlashuvi sharoitida xususiy kapital to‘g‘risidagi axborotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususiy kapital hisobini tashkil etishning amaliy jihatlari esa kapitalning shakllanishi va undan foydalanish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish, analitik va sintetik hisobni yuritish hamda moliyaviy hisobotlarda zarur axborotlarni ochib berishni qamrab oladi. Amaliyotda xususiy kapital tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisobga olish nafaqat moliyaviy hisobot sifatiga, balki tashkilotning moliyaviy barqarorligini baholash, kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun xususiy kapital hisobining nazariy qoidalarini amaliy hisob mexanizmlari bilan o‘zaro uyg‘unlashtirish, mavjud hisob usullarini takomillashtirish va zamonaviy moliyaviy hisobot talablariga moslashtirish buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususiy kapitalning iqtisodiy mohiyati, uning tarkibini shakllantirish, buxgalteriya hisobida aks ettirish va moliyaviy hisobotda taqdim etish masalalari mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy va uslubiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarni o‘rganish xususiy kapitalga nafaqat korxonaning moliyalashtirish manbai, balki uning moliyaviy mustaqilligi, mulkdorlarning korxona aktivlaridagi qoldiq manfaatini ifodalovchi hamda moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi hisob obyekti sifatida yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

K.B. Urazov va M.E. Po‘latov buxgalteriya hisobi tizimida xususiy kapitalni korxona mablag‘larini shakllantirishning o‘z manbalari tarkibida o‘rganib, uning tarkibiy elementlarini hisobvaraqlarda alohida aks ettirish zarurligiga e’tibor qaratadilar [1]. Mualliflarning yondashuvida xususiy kapital hisobining asosiy vazifasi uning shakllanishi, ko‘payishi va kamayishi bilan bog‘liq xo‘jalik

operatsiyalarini tegishli hisobvaraqlarda tizimli qayd etish hamda ular to‘g‘risidagi ishonchli axborotni moliyaviy hisobotda shakllantirishdan iborat. Ushbu yondashuv xususiy kapital hisobining nazariy mazmunini uning amaliy hisob mexanizmi bilan bog‘lash imkonini beradi.

B.I. Isroilov va R.O. Xolbekov xususiy kapital masalasini buxgalteriya hisobining fundamental kategoriyalari — aktivlar, majburiyatlar va kapital o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida tadqiq etadilar [2].

A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev va S.A. Jumanazarov xususiy kapital hisobini tashkil etishda uning alohida tarkibiy elementlari bo‘yicha analitik va sintetik hisobni yuritishga alohida e’tibor qaratadilar [3]. Ularning tadqiqotlarida ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foyda korxona xususiy mablag‘larining asosiy tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

N.B. Abdusalomova va F.T. Temirov moliyaviy hisobni tashkil etishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini milliy me’yoriy-huquqiy talablar bilan uzviy bog‘liq holda yoritadilar [4]. Mualliflarning qarashlariga ko‘ra, xususiy kapital hisobini samarali tashkil etishda xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, ularni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv xususiy kapital to‘g‘risidagi hisob axborotining ishonchliligi va tekshiriluvchanligini ta’minlashda birlamchi hujjatlar, hisob registrlari hamda moliyaviy hisobot o‘rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirishni nazarda tutadi.

E.S. Hendriksen va M.F. Van Breda xususiy kapitalni buxgalteriya hisobi nazariyasining muhim elementlaridan biri sifatida tadqiq etib, kapitalni aktivlar va majburiyatlar bilan bog‘liq holda tushuntiradilar [5]. Mualliflarning nazariy yondashuvida mulkdorlar kapitali korxonaning sof aktivlariga bo‘lgan qoldiq manfaatini ifodalashi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qarash xususiy kapitalning miqdori faqat mulkdorlarning dastlabki badallari bilan emas, balki korxona faoliyati davomida shakllangan moliyaviy natijalar, dividendlar va kapital bilan bog‘liq boshqa operatsiyalar ta’sirida o‘zgarishini tushuntirish imkonini beradi.

W.R. Scott moliyaviy hisob nazariyasini axborot asimmetriyasini kamaytirish va manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilishi uchun foydali axborot shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi [6]. Mazkur konsepsiya xususiy kapital hisobiga tatbiq etilganda, kapitalning hajmi va tarkibi haqidagi axborot investorlar hamda mulkdorlar uchun korxonaning moliyaviy holati va boshqaruv tomonidan resurslardan foydalanish natijalarini baholash vositasiga aylanadi. Shu sababli xususiy kapital bo‘yicha faqat umumiy summani emas, balki uning tarkibidagi o‘zgarishlarning iqtisodiy sabablarini ham moliyaviy hisobotda ochib berish axborotning qaror qabul qilishdagi foydaliligini oshiradi.

D.E. Kieso, J.J. Weygandt va T.D. Warfield xususiy kapital hisobini korporativ moliyaviy hisobotning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, aksiyadorlik kapitali, qo‘shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda, dividendlar va kapital bilan bog‘liq boshqa operatsiyalarni alohida hisobga olishning zarurligini ko‘rsatadilar [7]. Mualliflar yondashuvida kapitaldagi o‘zgarishlarning har bir manbasini identifikatsiya qilish moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga mulkdorlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni korxonaning joriy faoliyati natijasida yuzaga kelgan

o‘zgarishlardan ajratib baholash imkoniyatini beradi. Bu esa xususiy kapital hisobining axborot-tahliliy funksiyasini kuchaytiradi.

D. Alexander va A. Jorissen xalqaro moliyaviy hisobot nazariyasida kapital va daromad tushunchalarini o‘zaro bog‘liq kategoriyalar sifatida tahlil qiladilar [8]. Ularning yondashuvida kapitalni saqlab qolish konsepsiyasi korxona faoliyati natijalarini aniqlash va moliyaviy holatini baholashda muhim nazariy asos hisoblanadi. Xususan, davr davomida kapitaldagi o‘zgarishlarni mulkdorlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar va xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarga ajratish foydaning iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri aniqlashga xizmat qiladi.

M. Hoogendoorn moliyaviy hisobotning konseptual asoslari, baholash usullari va kapital tushunchasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratadi [9]. Ushbu yondashuvga muvofiq, xususiy kapital miqdori aktivlar va majburiyatlarning qanday tan olinishi hamda baholanishiga bevosita bog‘liq. Aktivlar yoki majburiyatlarning qiymatidagi o‘zgarishlar muayyan holatlarda korxonaning xususiy kapitaliga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan xususiy kapital hisobining haqqoniyligi faqat kapital hisobvaraqlarini to‘g‘ri yuritishga emas, balki aktivlar va majburiyatlarni asoslangan baholash usullaridan foydalanishga ham bog‘liq.

C. van Mourik xalqaro moliyaviy hisobot tizimida kapital, moliyaviy natijalar va hisobot elementlarini taqdim etish masalalarini xalqaro standartlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holda yoritadi [10]. Ushbu yondashuv xususiy kapital haqidagi axborotni xalqaro darajada taqqoslanuvchan shaklda taqdim etish zarurligini ko‘rsatadi. Kapital tarkibidagi o‘zgarishlarning mazmunan to‘g‘ri tasniflanishi va yetarli darajada ochib berilishi investorlar, kreditorlar va boshqa foydalanuvchilarga turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o‘rganilgan ilmiy adabiyotlarda xususiy kapitalning umumiy nazariy va uslubiy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, alohida faoliyat sohalari, xususan sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital tarkibini risklar bilan integratsiyalashgan holda hisobga olish, kapitalning risklarni qoplash funksiyasini alohida hisob obyektiga aylantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot talablari asosida uning analitik hisobini takomillashtirish masalalari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur ilmiy bo‘shliq sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini tarmoq xususiyatlari va risk darajasi bilan bog‘liq holda takomillashtirish bo‘yicha yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xususiy kapital xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyalashtirishning muhim ichki manbai bo‘lib, uning moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi va mulkdorlar manfaatlarini ifodalovchi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan xususiy kapital subyekt aktivlaridan barcha majburiyatlar chegirib tashlangandan keyin qoladigan qoldiq manfaatni ifodalaydi. Shu sababli uning miqdori aktivlar va majburiyatlarning tan olinishi, baholanishi hamda moliyaviy hisobotda aks ettirilishi bilan bevosita bog‘liq. Xususiy kapital tarkibiga ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) va qonunchilik hamda hisob siyosatida nazarda tutilgan boshqa kapital elementlari kiritiladi. Mazkur tarkibiy qismlarning iqtisodiy mazmuni turlicha bo‘lsa-

da, ularning umumiy vazifasi xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z mablag‘lari manbalarini shakllantirish va uning faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlashdan iborat.

Xususiy kapital hisobini amaliy jihatdan tashkil etish kapitalning shakllanishi, ko‘payishi, kamayishi va uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zgarishlarni buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida hamda ishonchli aks ettirishni nazarda tutadi. Bunda kapital bilan bog‘liq operatsiyalarni tegishli birlamchi hujjatlar asosida rasmiylashtirish, sintetik va analitik hisobvaraqlarda qayd etish, hisob registrlarida umumlashtirish hamda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ta’sischilarning ulushlari, kapitalga qo‘shimcha badallar, rezervlarning shakllantirilishi, sof foydaning taqsimlanishi, dividendlarning hisoblanishi va qoplanmagan zararlarning kapitalga ta’siri alohida nazorat qilinishi lozim. Bunday yondashuv xususiy kapitalning nafaqat umumiy miqdorini, balki uning qaysi manbalar hisobidan shakllanganligi va hisobot davrida qanday omillar ta’sirida o‘zgarganligini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy sharoitda xususiy kapital hisobini takomillashtirish uning axborot-tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Xususiy kapital to‘g‘risidagi batafsil va ishonchli hisob axboroti korxonaning moliyaviy barqarorligi, o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganligi, kapital rentabelligi va moliyaviy risklarga bardoshliligini baholash uchun zarur axborot bazasini yaratadi. Ayniqsa, sug‘urta tashkilotlarida kapitalning yetarliligi va uning risklarni qoplash imkoniyati alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyati qabul qilingan majburiyatlar va turli darajadagi sug‘urta risklari bilan tavsiflanadi. Shu bois sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini tashkil etishda kapitalning tarkibiy elementlarini risk darajasi bilan bog‘lash, risklarni qoplashga yo‘naltirilgan kapital manbalarini analitik hisobda alohida kuzatish hamda ular to‘g‘risidagi axborotni boshqaruv va moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish xususiy kapital hisobini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xususiy kapital hisobini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, mulkdorlar mablag‘larining shakllanishi va harakatini nazorat qilish hamda moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rganilgan ilmiy yondashuvlar xususiy kapitalni faqat moliyalashtirish manbai sifatida emas, balki korxonaning sof aktivlari, moliyaviy mustaqilligi va risklarni qoplash imkoniyatini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois xususiy kapitalning tarkibiy elementlari bo‘yicha analitik hisobni rivojlantirish, kapitaldagi o‘zgarishlarni tizimli nazorat qilish hamda, ayniqsa, sug‘urta tashkilotlarida kapital miqdorini mavjud risklar bilan o‘zaro bog‘liq holda hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi: darslik. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. — 558 b.

2. Isroilov B.I., Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik. — Toshkent: Tafakkur, 2020. — 240 b.

3. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. — 624 b.

4. Abdusalomova N.B., Temirov F.T. Moliyaviy hisob: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: IQTISODIYOT, 2021. — 283 b.

5. Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Accounting Theory. — 5th ed. — Homewood, IL: Irwin, 1992. — 905 p.

6. Scott W.R., O’Brien P.C. Financial Accounting Theory. — 8th ed. — Toronto: Pearson, 2019. — 656 p.

7. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. — 18th ed. — Hoboken, NJ: Wiley, 2022.

8. Alexander D., Jorissen A., Hoogendoorn M., van Mourik C., Kirwan C. International Financial Reporting and Analysis. — 8th ed. — Andover: Cengage Learning, 2020. — 864 p.

9. Hoogendoorn M. // Alexander D., Jorissen A., Hoogendoorn M., van Mourik C., Kirwan C. International Financial Reporting and Analysis. — 8th ed. — Andover: Cengage Learning, 2020. — 864 p.

10. Van Mourik C. // Alexander D., Jorissen A., Hoogendoorn M., van Mourik C., Kirwan C. International Financial Reporting and Analysis. — 8th ed. — Andover: Cengage Learning, 2020. — 864 p.

| | | |
|---|---|---|
| ТОҲИР САТТОРОВ | МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТИГА МУВОФИҚ СОТИШ ЖАРАЁНИ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 422 |
| РАХИМОВА ГУЗАЛБЕГИМ МУРОДОВНА | МЕТОДИКА АНАЛИЗА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ | 425 |
| ОБИД МАМАЮНУСОВИЧ ПАРДАЕВ | ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАҒАЛЛИКНИ АНИҚЛАШНИНГ КЎП ЎЛЧОВЛИ ЯНГИ ИНДИКАТОРЛАРИ | 427 |
| NAVRUZOVA FAROG‘AT ABDIHAMID QIZI | AHOLI DAROMDLARINI FISKAL MEXANIZMLAR VOSITASIDA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY MASALALARI | 431 |
| N.I.Najimova | XUSUSIY KAPITAL HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI | 433 |